

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA INKLYUZIV TA'LIMNI TASHKIL
ETISHNING SAMARADORLIGI**

Vobkent tumani 1-son DMTT tarbiyachisi

Amonova Feruza Komilovna

Annotatsiya: *Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni tashkil etishning samaradorligi, uning pedagogik, ijtimoiy va psixologik jihatlari, shuningdek, ushbu jarayonda yuzaga keladigan muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari tahlili, inklyuziv ta'lim tizimini rivojlantirish maqsadi va vazifalari haqida so'z boradi.qilinadi.*

Kalit so'zlar: *Ta'lim, tarbiya, inklyuziv, tafakkur, rivojlanish, intellektual salohiyat, takomillashuv, ijodiy tafakkur, inklyuziya, dunyoqarash, ijodiy yondashuv, tafakkur.*

Bugungi kunda Respublikamiz ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, ayniqsa, maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar jamiyatning barcha qatlamlari uchun teng ta'lim imkoniyatlarini yaratishni talab etmoqda. Shu jumladan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni samarali yo'lga qo'yish muhim ahamiyat kasb etadi. Inklyuziv ta'lim - bu jismoniy, aqliy yoki psixologik rivojlanishida o'ziga xos, alohida ehtiyojlari bo'lgan bolalarni sog'lom tengdoshlari bilan birgalikda tarbiyalash va ta'lim olishlarini ta'minlaydigan ta'lim shaklidir.

Inklyuziv (“ichiga olingan”) ta'lim salomatligi bo'yicha imkoniyati cheklangan bolalarning me'yorda rivojlanayotgan o'zining tengqurlari bilan birga ta'lim olishini nazarda tutadi. Ushbu ta'lim jamiyatning “alohida” bolalarga nisbatan insonparvarlik, tolerantlik munosabatlarini belgilaydigan inklyuziv ta'lim tamoyillari, yondashuvlari va qadriyatlarini pedagoglar tomonidan qabul qilinishiga asoslanadi.

Imkoniyati cheklangan bolalarning huquqini himoyalash, ularni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash mamlakatimizning muhim siyosiy yo'nalishlaridan sanalib kelingan bo'lib, uzoq tarixga borib taqaladi. Shaxsning aqliy va axloqiy kamolotida oila, mehnat va jamoa tarbiyasining yo'naltiruvchi va tarbiyalovchi vazifalariga alohida e'tibor berganlar. Aynan shu jihatlari bilan sharq mutafakkirlarining pedagogik qarashlari inklyuziv ta'limni samarali tashkil etish hamda imkoniyati cheklangan bolalar ijtimoiylashuvida ham alohida o'ringa egadir.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni joriy etish bolalarning ijtimoiylashuvi, muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish, o'ziga bo'lgan ishonchini oshirish hamda jamiyatda bag'rikenglik va hamkorlik muhitini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, inklyuziv ta'lim jarayonida pedagoglarning kasbiy mahorati, ta'lim muhitining moslashtirilganligi, ota-onalar bilan hamkorlik hamda metodik ta'minot muhim omillar hisoblanadi.



Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni samarali yo'lga qo'yish jarayoni bolalarning individual ehtiyojlarini inobatga olgan holda ta'lim-tarbiya berishni nazarda tutadi. Inklyuziv ta'limning asosiy maqsadi rivojlanishida turli xil nuqsonlari bo'lgan bolalarni jamiyatga moslashtirish, ularning teng huquqli ta'lim olish imkoniyatlarini ta'minlash hamda sog'lom tengdoshlari bilan birgalikda rivojlanishiga sharoit yaratishdan iborat.

Barchamizga ma'lumki bugungi kunda inklyuziv ta'limning samaradorligi, eng avvalo, pedagog kadrlarning kasbiy tayyorgarligiga bog'liqdir. Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilari, ota-onalar, defektolog, logoped va psixologlarining hamkorlikdagi faoliyati bolalarning rivojlanishidagi muammolarni erta aniqlash va ularga mos pedagogik yondashuvlarni qo'llash imkonini beradi. Shu bilan birga, pedagoglarning inklyuziv ta'lim bo'yicha malakasini oshirish, zamonaviy metod va texnologiyalardan foydalanish ta'lim sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.

Bugungi kunda pedagoglarga qo'yiladigan zamonaviy talablarning ko'lami va mazmundorligi kengaygan. Shu jumladan, pedagoglar quyidagilarni bilishi va amaliyotda joriy etalishi talab etilmoqda:

- alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalar ta'limi va tarbiyasining nazariy masalalarini bilishi;
- nuqsonlari bo'lgan bolalar rivojlanishining psixofiziologik xususiyatlarini bilishi va farqlashi;
- inklyuziv ta'limdagi maxsus sharoitlar va yondashuvlarni bilishi va ulardan amaliyotda foydalana olishi;
- fanlardan o'quv materiallarini imkoniyati cheklangan bolalar va me'yorda rivojlanayotgan ta'lim oluvchilarning o'quv imkoniyatlariga mos tayyorlash usullarini egallagan bo'lishi;
- inklyuziv ta'lim sharoitida o'quvchilarning o'zaro birgalikdagi faoliyatlarini boshqarishni olishi;
- psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlovchi mutaxassislar bilan hamkorlikda ishlashi;
- salomatligida cheklanishi bo'lgan ta'lim oluvchilarga va ularning oilasiga yordam berishni va shu kabilarni bilishlari kerak.

Shu bilan birga. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'lim muhitini yaratish alohida ehtiyojli hamda sog'lom bolalar uchun muhim ahamiyatga ega. Ta'lim muhitining jismoniy jihatdan moslashtirilgan bo'lishi, qulayligi, maxsus jihozlar va didaktik materiallar bilan ta'minlanishi bolalarning erkin harakatlanishi va ta'lim jarayonida faol ishtirok etishini ta'minlaydi. Shuningdek, ta'lim jarayonida individual ta'lim dasturlari asosida ishlash bolalarning qobiliyat va imkoniyatlarini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi.

Inklyuziv ta'limning samaradorligi ota-onalar bilan olib boriladigan hamkorlik ishlarida ham namoyon bo'ladi. Ota-onalarning ta'lim jarayonida faol ishtiroki,



pedagoglar bilan muntazam muloqoti bolaning rivojlanishida ijobiy natijalarga erishishga yordam beradi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagog va tarbiyachilar tomonida ota-onalar uchun maslahatlar, treninglar va seminarlar tashkil etilishi inklyuziv ta'limga bo'lgan ijobiy munosabatni shakllantiradi.

Shuningdek, inklyuziv ta'limni samarali yo'lga qo'yilishi sog'lom bolalarga ta'siri juda ham katta. Ushbu jarayonda sog'lom bolalarda ijtimoiy ko'nikmalar, bag'rikenglik, hamdardlik va kuchsizlarga yordam ko'rsatish, mehr-muhabbat, o'zaro hurmat tuyg'ulari rivojlanadi. Bu esa kelajakda jamiyatda inklyuziv madaniyatni shakllantirishga xizmat qiladi. Shu sababli, Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni samarali tashkil etish nafaqat alohida ehtiyojli bolalar, balki barcha tarbiyalanuvchilar uchun muhim pedagogik ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni tashkil etish bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlashda muhim pedagogik ahamiyatga ega. Inklyuziv ta'lim orqali rivojlanishida alohida ehtiyojlari bo'lgan bolalarning ta'lim-tarbiyaga bo'lgan huquqlari ta'minlanib, ularning jamiyatga moslashuvi va ijtimoiy faolligi oshib boradi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limning samaradorligi pedagog kadrlarning kasbiy tayyorgarligi, ta'lim muhitining moslashtirilganligi, individual yondashuvning maqsadli qo'llanilishi hamda ota-onalar bilan samarali hamkorlikka bevosita bog'liqdir. Ushbu omillar uyg'unlashgan holda tashkil etilgan ta'lim jarayoni bolalarning bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida qarori PQ-4312 08.05.2019
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining alohida ta'lim olish ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora – tadbirlari to'g'risidagi qarori -4860 13.10.2020
3. Д.З. Ахметова, З.Г. Нигматов, Т.А. Челнокова, Г.В. Юсупова и др. Педагогика и психология инклюзивного образования: учебное пособие . – Казань, 2013
4. Буторина, О. Г. Об опыте воспитания и обучения детей с ограниченными возможностями здоровья / О. Г. Буторина // Воспитание школьников, 2010
5. Инклюзивная практика в дошкольном образовании. Современный образовательный стандарт / Т. В. Волосовец, А. М. Казьмин, В. Н. Ярыгин. – М.: Мозаика-Синтез, 2011. – 144 с.
6. D.S.Qaxarova “ Inklyuziv ta'lim texnologiyasi” o'quv va metodik qo'llanma 2014-yil



7. Raxmonova S.M., Negmatova M.M. Imkoniyati cheklangan bolalarni o‘qitishda inklyuziv ta’limning samaradorligi va olimlarning ilmiy qarshlari Muallim xem uzliksiz bilimlendirio’. Ilmiy-metodik jurnal. Nukus. 2023 y. № 3/4, 161-164 b.

8. Raxmonova S.M., Ashurova Z.M. “Innovative technologies in preschool education organization of inclusive education in preschool education” Cutting edge-science. International scientific and practical conference. 2020 y.-62-63 p.

9. Raxmonova S.M. “Bo‘lajak o‘qituvchining pedagogik qobiliyati hamda kasbiy va shaxsiy sifatlar uyg‘unligi”. Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences. British international scientific-online conference. 2024 y. -225-229 b.

